



VAQTLI MATBUOTDA 1920–1924-YILLAR XORAZM SIYOSIY-IJTIMOIIY TARIXIGA OID JARAYONLARNING YORITILISHI

Atamuratova Dilafruz Rashidovna

Urganch davlat universiteti “Tarix” kafedrasi dotsenti v.b., PhD

atamuratovadilafruz@gmail.com

97 510 84 33

Annotatsiya. XX asrning ikkinchi o'n kunligida Xorazmda matbuot hali shakllanmagan, faqat nashr ishi mavjud bo'lib, Asfandiyor hukmronligi davrida bu ish ham ancha sustlashgan edi. Xiva xonligi 1920-yil ag'darilishi Xorazmning keying taqdirini sho'ro hukumatiga bog'ladi. Maqolada 1920-1924-yillarda Xorazm tarixiga oid jarayonlar tahlili amalga oshirilgan. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mahalliy nashrlardan tashqari Buxoro, Turkistonda, qolaversa RSFSR, keyinchalik SSSR vaqtli matbuotida keltirilgan maqolalar, axborotlar, ma'lumotlar asos qilib olindi.

Kalit so'zlar: davriy nashr, matbuot, gazeta, ijtimoiy masala, siyosiy jarayonlar, XXSR, XSSR, istiqlolchilik harakati.

ОСВЕЩЕНИЕ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПОЛИТИЧЕСКОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ ИСТОРИЕЙ ХОРЕЗМА, В ПЕРИОДИЧЕСКОЙ ПЕЧАТИ 1920–1924 ГГ.

Аннотация Во втором десятилетии XX века в Хорезме печать еще не сформировалась, существовало только издательское дело, а в период правления Асфандияра эта работа также значительно замедлилась. Свержение Хивинского ханства в 1920 году связало дальнейшую судьбу Хорезма с советской властью. В статье анализируются процессы, связанные с историей Хорезма в 1920-1924 годах. Помимо местных изданий общественно-политические процессы освещались на основе статей, информации и данных, опубликованных в Бухаре, Туркестане, а также в печати РСФСР, а позднее и СССР.

Ключевые слова: периодическое издание, пресса, газета, социальная проблема, политические процессы, ХНСР, ХССР, движение за независимость.

COVERAGE OF PROCESSES RELATED TO THE POLITICAL AND SOCIAL HISTORY OF KHOREZM IN THE PERIODICAL PRESS IN 1920–1924

Abstract In the second decade of the 20th century, the press had not yet formed in Khorezm; there was only publishing, and during the reign of Asfandiyar, this work also slowed down significantly. The overthrow of the Khiva Khanate in 1920 linked the future of Khorezm with Soviet power. The article analyzes the processes associated with the history of Khorezm in 1920-1924. In addition to local publications, socio-political processes were covered on the basis of articles, information and data published in Bukhara, Turkestan, as well as in the press of the RSFSR, and later the USSR.

Key words: periodical, press, newspaper, social problem, political processes, KhPSR, KhSSR, independence movement.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Ommaviy axborot vositalari turkumiga kiruvchi davriy matbuot nashri ishi XX asrning birinchi choragida o‘lkada to‘liq shakllanib ulgurdi. Siyosiy ahamiyat kasb etgan matbuot konteksti O‘rta Osiyoda shaklan mavjud xonliklar boshqaruvi va mahalliy xalqda mazkur boshqaruv tartibiga norozilik ruhini shakllantirish, keyinchalik diniy-mafkuraviy e‘tiqodga ishonchini yo‘qotish hamda partiyaviy g‘oyalarni singdirish maqsad qilib olgandi.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI

Maqolada 1920-1924-yillarda Xorazm tarixiga oid jarayonlar tahlili amalga oshirilgan. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mahalliy nashrlardan tashqari Buxoro, Turkistonda, qolaversa RSFSR, keyinchalik SSSR vaqtli matbuotida keltirilgan maqolalar, axborotlar, ma‘lumotlar asos qilib olindi. Siyosiy jarayonlar negizida qizil armiyaga bo‘ysunmaslik bilan bog‘liq jarayonlar, istiqlolchilik harakati, Buxoro va Xorazmda kechgan mustaqillik uchun kurashning tub mohiyati “bosmachilik” harakatidan keskin farq qilgani, matbuotda mavjud senzuraning vaziyatni baholashda ba‘zan siyosiy kuchlarning ta‘sir kuchi mavjud ekanligi bilan bog‘liq holatlar ko‘rib chiqildi. Tadqiq qilinayotgan masalada asosiy e‘tibor ijtimoiy jarayonlarning davriy nashrlarda yoritilishi xronolik va qiyosiy-tarixiy tahlil ostiga olingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

XX asrning ikkinchi o‘n kunligida Xorazmda matbuot hali shakllanmagan, faqat nashr ishi mavjud bo‘lib, Asfandiyor hukmronligi davrida bu ish ham ancha sustlashgan edi. “Yosh xivaliklar” faqat Rossiya matbuoti, “Tarjimon”, “Vaqt”, “Ittifoq”, “Taraqqiy”, “Yulduz” gazetalari, “Din va maishat”, “Sho‘ro” jurnallari bilangina cheklangan emas. Ular Eron, Afg‘oniston, Misr shuningdek, Istanbulda turk tilida nashr etilgan “Vahdat”, Hindistonning Kalkutta shahrida chop etilgan “Habl ul-matn” va boshqa nashrlar orqali ham jahonda yuz berayotgan o‘zgarishlardan xabardor bo‘lganlar.

Asfandiyor ifoda marom eta bilaturg‘on qadar ruscha bilur hamda o‘qur va yozar erdi. Taxminan 1904-yildan boshlab butun ruscha va totorcha, turkcha, ozarbayjoncha gazet va jurnallarg‘a obuna bo‘lib ta‘qib qilg‘onidek, jug‘rofiya, tarix va adabiyotg‘a oid kitoblarni Istanbul va Ozarbayjondin maxsus kelturturib o‘qur erdi. Mundan boshqa o‘zi o‘qub yetushtira bilmagan gazatlari bo‘lsa, o‘zining ishonchli xos mahrami totor mullo Ramazon

Saydashevga oq‘utturur erdi. Mazkur totor Ahmadjon Akayefning Asfandiyorg‘a o‘qituvchilik qilib, uni siyosiy fikrlarga oshno qilib yurganligi Niqolay hukumatiga ma‘lum bo‘lg‘och, yo‘q bir bahonlar bilan Akayefni o‘rnidin azl qilinib (bo‘shatilib) Xivadan chiqartirildi. Uning o‘rnig‘a qozoqdan cho‘qung‘on Karnilufni tilmoch qilib yuborilgan edi [1, b. 9]. 1917-yilda may oyida Xiva shahrida “ochlik isyoni” ko‘tarildi. 1917-yil 27-avgustda Toshkentda chop etiladigan “Ulug‘ Turkiston” gazetasi quydagilar keltiriladi: “Hozirgi paytda Xivada dahshatli ochlik kuchaydi, mamlakat shaharlarida och qolganlarning qo‘rqinchli isyoni avj oldi [10, c. 82]”. “Turon” gazetasining yozishicha 1917-yilning, 4-aprelida Xiva shahridagi rus askarlari deputatlari soveti va Boboovun Salimov rahbarligidagi “Yosh xivaliklar” namoyish o‘tkazdilar.

1918-yil iyuldan Toshkentda Turkiston Xalq komissarlari sovetining (XKS) organi sifatida nashri yo‘lga qo‘yilgan “Ishtirokiyun” gazetasi 1920-yilning dekabridan “Qizil bayroq” nomi ostida chop etila boshlanadi hamda Turkiston Kommunistik partiyasi Markaziy Kengashi tarkibiga o‘tkaziladi. Keyingi davrlarda “Turkiston”, “Qizil O‘zbekiston”, “Sovet O‘zbekistoni” nomlari bilan chop etilgan. 1924 – 1925-yillarda Turkistonda 46 gazeta va 22 ta jurnal rus va mahalliy tillarda nashr qilingan [10, c. 42].

Kompartiya faoliyati doimiy yoritib borilgan, jumladan 1921-yilning iyun oyida Xivada ish boshlagan I syezd to‘g‘risida ma‘lumot keltiriladi. 1921-yilda partiya tarkibida 500 nafar a‘zo, 25 ta yacheyka va 8 ta tuman qo‘mitalari mavjudligini ko‘ramiz. XXSR davrida paxta ekiladigan maydonlar ancha kengayib 1921-yildagi 3000 desyatinadan 1923-yil 9500 desyatinaga yetadi [14, c. 1]. 1921-yili XXSR soliq tizimida ba‘zi o‘zgarishlar ro‘y beradi. Natura shaklidagi asosiy hosildan olinadigan soliq mahsulot turiga qarab belgilangan jumladan, bug‘doydan 20 funt, guruchdan 20, kunjutdan 10 funt olingan. Soliqdan faqat kambag‘allar, 1,5 tanobgacha yerga ega bo‘lganlar ozod etilib, 30 tanobdan ko‘p yerga ega bo‘lganlar har tanob yeriga 3 puddan soliq tarzida to‘laganlar, qizig‘i XXSR armiya tarkibiga kirgan a‘zolar ham soliqlardan ozod qilingan. Buning asosiy sabablaridan biri Xorazmda “sotsializmni barpo etish” vazifasi aynan qizil armiya yordami bilan amalga oshirilishi maqsad qilib qo‘yilganligida edi. Qizil armiya obro‘cini xalq orasida oshirish va mahalliy millat vakillari ishonchiga sazovor bo‘lishi uchun sodir bo‘layotgan voqealarga doimiy munosabatini shakllantirish uning imijini ijobiy tomonlama ko‘rsatishga harakat qilinganligini ko‘ramiz. Jumladan, 1921-yilning yozida Xorazmda faoliyatini boshlagan ilk oliygohni qutlab armiya bo‘linmalarida qutlov xatini e‘lon qilganlar [5].

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida chop etilgan BXSR tashqi aloqalari bilan bog‘liq xabar va maqolalar ustida fikr yuritib, aytish mumkinki, 1920-1922 yillarda faol diplomatik va siyosiy munosabatlar yo‘lga qo‘yilganligidan voqif bo‘linadi. Gazetalarda respubikaning dastlabki yillarida qo‘shni RSFSR, XXSR, Turkiston ASSR bilan o‘zaro shartnomalar imzolash, diplomatik vakillar almashish jarayoni boshlab yuborilganligi xabar beriladi. “BXSR tomonidan Xiva (XXSR)g‘a Mirbobo Muhsin o‘g‘li va Fatxullo Komil vakil bo‘lib ketdilar... Rusiyag‘a muvaqqat namoyonda bo‘lib, Muhiddin Mansurov, Najib

Husainov, Mirzo Bahrom Ahmadqul jo‘nab ketdi... Turkiston ASSR (Toshkent)g‘a Mirmuhsin Fozilov elchi qilib tayinlandi. 1922 yilda esa Akmalov va Abduvohidovlar elchi bo‘lishdi... Qirg‘iziston Jumhuriyati (Qozog‘iston ASSR - K.R.) poytaxti O‘rinburg‘ (Orenburg)g‘a BXShJ konsuli yuborilg‘ondur... Astraxan viloyatig‘a BXShJ fuqarolari manfaatini himoya qilmaq uchun konsul o‘rtoq Abdulla Iskandar yuborildi...”,- kabi ma‘lumotlar “Buxoro axbori” gazetasida keltiriladi. 1920-yil 13-sentyabrda Moskvada RSFSR bilan XXSR o‘rtasida 24 moddadan iborat Ittifoq shartnomasi, harbiy-siyosiy va 15 moddadan iborat iqtisodiy bitim imzolandi. 1921 yilning 13 noyabrida XXSR bilan BXSr o‘rtasida tuzilgan 15 moddadan iborat shartnoma matni ham “Buxoro axbori” gazetasida chop etilgan. Mazkur matn ikki respublika o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning tahlili uchun muhim manbalardan biridir.

O‘lkada “Inqilob quyoshi” gazetasi va ikki haftada bir matotaba nashr qilinuvchi “Qizil Xorazm” jurnalidan tashqari “Rosta” gazetasi, 1922-yildan nashri amalga oshirila boshlagan “Maorif” jurnali, 1921-yilning 6-iyulida o‘zbek, turkman va rus tillarida ilk nashri amalga oshirilgan “Izvestiya” gazetalari XXSR davrida shakllandi.

1923-yil 17-oktaybrda IV Butunxorazm sovetlarining qurultoyida mahalliy boshqaruv idoralarida o‘tkazilgan “tozalash” ishlaridan so‘ng xonlik tuzumidan ozod bo‘lgan Xorazm sovet tuzumiga o‘tishi ma‘lum qilinadi.

O‘lka hayotini bu davrda yoritishda “Jizn natsionalnestey” gazetasi va shu nomdagi jurnali muhim rol o‘ynaydi. Bu gazeta Millatlar xalq komissiyasi takibida bo‘lib, XXSR mavjud bo‘lgan davrda ya‘ni 1918-yil 9-noyabrdan 1922-yilning 6-fevraliga qadar, shu nomli jurnali 1922-yilning 25-fevralidan 1924-yilning yanvariga qadar chop etilgan. Bu jurnalning navbatdagi sonida 1923-yilga kelib, Xorazmda 6 ta paxta zavodi, 1 ta yog‘, 4 ta teri va 10 ta g‘isht zavodlarining faoliyati qayta tiklangani haqida xabar beradi. 1924-yil XXSRda Tuyamo‘yin kanali qurilishi boshlanib, sarflangan xarajat 3,5 millin rublni tashkil qildi.

Ushbu davr matbuotiga xos jihat o‘lkadagi milliy-ozodlik harakatlarini diniy shiorlar ostida amalga oshirilmoqda deya baholanishi va tanqidiy maqolalarda ozodlik harakatlarining hukumat senzurasiga bo‘ysunishi oqibatida qoralanishi bo‘ldi. Xorazmda ham jarayonlar shunday tus olganligi ba‘zi nashrlarda tilga olinadi. Samarqandda chop etiluvchi “Rosta” gazetasi Xorazmda kuchaygan milliy-ozodlik harakati vakillarining inglizlar bilan aloqa o‘rnatganligi, ularning Mashhaddagi shtabi bilan aloqasi borligini xabar qiladi [11]. Bunda ko‘proq Junaidxon boshchiligidagi kuchlarga urg‘u beriladi. Sovet hukumati bilan til biriktirib xon hokimiyatiga qarshi chiqqan, lekin keyinchalik XXSR va XSSR davrida sovet hukumatiga qarshilik ko‘rsatgan va hokimiyat talab qilgan bu kuchlar haqiqatdahan inglizlar bilan til biriktirganligi ba‘zi ma‘lumotlarda o‘z aksini topadi nazarimizda.

Umuman olganda mazkur holat matbuot senzurasini to‘liq hokimiyatga boysundirilganligini isbotlaydi. Jumaladan, “...ular Markaziy Osiyoni ingliz imperiazmiga bo‘ysunuvchi koloniyasiga aylantirish uchun ishladilar...[7]” mazmunidagi jumlar buni

isbotlaydi nazarimizda. 1920-yil bahorida Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on Xorazmda bo‘ladi. Bu haqda vaqtli matbuotda Xiva Purxiv (Politicheskoe upravlenie Xivi) tashkiloti ma‘lumotlari asosida xabar beriladi.

1921-yilda Yosh xivaliklardan hisoblangan bir guruh Juniadxon boshchiligidagi kuchlar tarkibiga o‘tib ketadi, ularning qatorida Ota Maxsumov ham bo‘lgan. Bunga sabab, RSFSRning Muxtor vakili M.Safonovning buyrug‘i bilan 1921-yil 6-mart kuni yosh xivaliklar hukumatiga qarshi ommaviy mitinglar o‘tkazildi. Mitingda qizil armiya siyosiy boshqarmasining talabi bilan yosh xivaliklar hukumatini ag‘darish haqida qaror qabul qilindi. Qurollangan harbiy qismlar hukumat uyiga bostirib kirib, hukumat rahbarlarini hibsga oldilar. Polvonniyoz Yusupov yashirinishga ulgurdi. Qizil askarlar qo‘liga tushmay qolgan nozirlar esa Junaidxonga qo‘shildilar. Qonuniy saylangan yosh xivaliklar hukumati ag‘darildi. Bu dahshatli qirg‘inlar va qonxo‘rlikning hammasi Xorazmda sovetlar mustamlakachilik va qullik tizimini o‘rnatish maqsadlarini ko‘zlab, amalga oshirildi. Ana shu razil maqsadni amalga oshirishning navbatdagi bosqichi 1921-yil, 15-23-mayda chaqirilgan Butun Xorazm sovetlarining II qurultoyi bo‘ldi. Qurultoyda 230 vakil qatnashdi. Shundan 50 kishi turkman xalqi vakillari edilar. Mamlakatimizda amalga oshirilgan mislsiz qirg‘inlar va dahshatlarning g‘oyaviy ilhomchilari va tashkilotchilari V.I.Lenin va I.Stalinni “inqilob” dohiylari sifatida qurultoyning faxriy rayosatiga sayladilar. Keyinchalik XXSR Ijtimoiy ta‘minot noziri – G‘ulomalixon Bahodir, Moliya noziri Muhammad Yusuf Otaxonov, Tashqi ishlar noziri Mulla O‘roz Xo‘jamuhamedov, Jumaniyoz Sultonmurodovlar ham Qurbon Mamed Sardor safida istiqlol uchun kurashadilar. Yosh buxoroliklardan U.Xo‘jayev ham istiqlolchilar qatoriga o‘tib ketadi. “Jizn natsionalnestey” gazetasining navbatdagi sonida Usmon Xo‘jayevga aksilinqilobiy “Turkiston Milliy Birligi” tashkilotini tuzganligi aybi qo‘yilib, unda ingliz va yapon hukumati bilan bog‘lanib Turkiston “bosmachilari” uchun yordam so‘rab murojaat qilgani, murojaat asosan qurol masalasida ekanligiga urg‘u beriladi. Bu ikkala xatda Farg‘ona istiqlolchilari nomidan Shermuhammedek, Buxoro milliy harakati nomidan Muzafariddin va Xiva istiqlolchilari nomidan Alibek Omonqulov O‘rta Osiyo Markazi Qo‘mitasi nomidan rais Sadriddinlar xatga imzo qo‘yishgan. Istiqlolchilik harakatining mohiyati Shermuhammadbek tomonidan 1921-yil yanvarda chiqarilgan varaqalarda batafsil izohlangan bo‘lib, unda ishtirokchilarning maqsadlari quyidagicha ochib berilgan: “Bolsheviklar! Sizlar do‘stlaringizni ashaddiy dushmanlaringizga aylantirdingiz. 1918-yildan boshlab qanchadan-qancha o‘lim, vayronagarchilik va turli adolatsizliklarni amalga oshirdingiz. Nima yaxshilik yo karomat ko‘rsatdingiz? Aholini xonavayron etib, terrorchilik hodisalarini amalga oshirib, uni qirg‘in qilganingizmi?! Farg‘onadagi millionlab tinch aholini yigitlarga aylantirgan sabablar shunda... Bizni daxlsiz qoldiring, shunda biz tinchiymiz! [8]”. Qurolli muxolifat qo‘shini tomoniga o‘tib ketgan BXSR Nozirlar Sho‘rosi raisining muovini lavozimida ishlagan, Harbiy ishlar noziri Abdulhamid Oripov ham qizil askarlarga qaratilgan murojaatnomasida bu harakat mohiyatini quyidagicha tavsiflagan: “Bu

qo‘shin O‘rta Osiyo tashkiloti Markaziy Qo‘mitasi (Turkiston Milliy Birligi)ga bo‘ysunadi. Uning shiorlari – demokratik respublika, Turkistonga to‘la asosda muxtoriyat, Buxoro va Xivaga mustaqillik... Turkiston va Buxorodagi kommunistlarni umumiy kuchlarimiz bilan ag‘darib tashlaymiz”.

Turkiston matbuotida 1922-yil iyun oyida RKP MK O‘rta Osiyo byurosi Turkiston, Xorazm va Buxoro kommunistlariga murojaat qilib, “bosmachilar” harakatiga qarshi fidokorona kurash olib borishga, keng mehnatkashlar ommasi o‘rtasida siyosiy-ommaviy ishlarni kuchaytirishga chaqirdi.

Turkistondagi bolsheviklar rejimi Junaidxonga qarshi kurashda aytarli yutuqqa erish olmagach, makkorlik yo‘li bilan ayrim Turkman urug‘lari yetakchilaridan o‘z maqsadi yo‘lida foydalandilar. Xullas, Xorazm vohasidagi istiqloлчаilik harakati turli siyosiy maqsadlar uchrashganligi va to‘qnashganligi bilan ham mintaqaning boshqa hududlaridan ajralib turadi. Turkiston ASSR rahbarlaridan biri bo‘lgan Q.Otaboyevning aytishicha, “Junaidxonga qarshi kurashda qo‘qqisdan uning dushmanlari hisoblanmish G‘ulomalixon va Qo‘shmamedxon degan turkman yo‘lboshchilari qo‘shilib qolishdi, natijada biz ikki urug‘ning o‘zaro kurashuviga erishdik”.

Markaz matbuotida Junaidxon va uning atrofida birlashgan mahalliy xalq, ya‘ni istiqloлчаilar harakati vakillarini matbuotda chet ellik agentlar bilan bog‘lanishda ayblar qo‘yilardi, shundan kelib chiqqan holda asosan Shimoliy Eron orqali inglizlar bilan aloqa o‘rnatgan Junaidxon odamlari imkon qadar mahalliy dehqonlarni o‘ziga jalb etishni maqsad qildiki, bu ishni amalga oshirishda mustqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng bir qator soliqlardan ozod qilishni va‘da qildi kabi ma‘lumotlar berib borilgan, shunisi aniqki, matbuotda esa istiqloлча uchun emas dehqonlar soliqlardan ozod bo‘lish maqsadida uning atrofida birlashganligini izohlashga harakat qilishgan.

XULOSA

Xiva xonligining ag‘darilishi, bu tarixiy voqeaning oqibatlari, qizil armiya qo‘shinlarining noinsoniy hatti-harakatlari, shunday murakkab sharoitda XXSR davlati va hukumatining tuzilishi, uning boshqaruvi, nozirliklar faoliyati, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy, madaniy sohalarda olib borilgan bir qator islohotlar, istiqloлчаilik harkatlarining matbuotda yoritib borilishi o‘sha davrda siyosiy, ijtimoiy vaziyatning qanchalik murakkabligini yana bir bor isbotlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бекмуҳаммад У. Қатағон курбонлари (Нормат Исроилов, Назиркул Исроиловларнинг ҳаёти, фаолияти ва тақдири. Улар яшаган давр). – Урганч, Хоразм нашриёти. 2020. – Б. 9.
2. Большевик, № 23, 1951, стр. 68-69.
3. Бухоро ахбори.

4. Известия ТуркЦИК, 4 июня 1922 г.; Qarang: Непесов Г.Н. Из история Хорезмской революции (1920-1924 гг.). Ташкент: Государственное издательство УзССР. 1962. – С. 274.
5. Известия Полпредства РСФСР в Хорезме, 8 августа 1921 г.
6. История Хорезмской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.). – Ташкент: Фан, 1976. – С. 56-64.
7. Коммунист, № 6, 1955, стр. 82.: Непесов Г.Н. Из история Хорезмской революции (1920-1924 гг.). Ташкент: Государственное издательство УзССР. 1962. – С. 267.
8. К-ов А. Два голоса – «Еженедельник политработника», 16 января 1921 г.; Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). К. 1. Ўзбекистон тарихи 1917-1939 йилларда. – Тошкент.: O‘zbekiston, 2019. – Б. 181.
9. Новый Восток, 1930, № 29, стр. 136.
10. Непесов Г.Н. Из история Хорезмской революции (1920-1924 гг.). Ташкент: Государственное издательство УзССР. 1962. – С. 81.
11. Роста, 24 февраля 1920 г.
12. Туркменоведение, № 10-11, 1928, стр. 44.; Коммунист, № 6, стр. 78.
13. Узгаришчи яшлар, Ташкент, 1924, № 34, стр. 43.
14. Хлопковое дело, М., 1923. № 7-8, стр. 1.